



İntihal / Plagiarism

This article was checked by



programında bu makale taranmıştır

Makale Bilgisi / Article information

Makale Türü / Article types	: Araştırma Makalesi / Research article
Geliş Tarihi / Received date	: 15.04.2023
Kabul Tarihi / Accepted date	: 04.12.2023
Yayın Tarihi / Date published	: 20.12.2023

Atıf / Citation

Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD)*. 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.

TIL KORPUSLARIDA FRAZEMALAR BAZASINI YARATISH OMILLARI

On creating a database of phrases for the language corpus

UMIDA RASHIDOVA¹ - MANZURA ABJALOVA²

Öz

Ma'lumki, bugungi globallashtgan davrda til korpuslari benazir o'quv quroli, ko'p funksiyali lingvistik elektron tizim hisoblanadi. Unda matnlar bazasi bilan birga leksikografik manbalarning ham mavjudligi ma'lumotlar manbai sifatida foydalanuvchilarga bisyor bilimga ega bo'lish va so'z boyliklarini oshirish imkoniyatlarini beradi. Shu maqsadda leksikografik baza tarkibida frazemalar bazasining bo'lishi ahamiyatli sanaladi. Mazkur maqolada lingvistik korpuslarda iboralar bazasining mavjudligini ta'minlash sabablari va uning ahamiyati borasida so'z yuritildi. Shuningdek, o'zbek tilining ta'limiy korpusida iboralar bilan ishlash usullari ko'rsatib berildi.

Anahtar Kelimeler: Frazemalar (Iboralar), Til Korpuslari, Ta'limiy Korpus, Baza, Somatik Iboralar.

Abstract

It is known that in today's globalized era, language corpora are a kind of teaching tool, a multifunctional linguistic electronic system. The presence of lexicographic resources in it along with the text base as a source of information gives users the opportunity to acquire basic knowledge and replenish their vocabulary. Each language has phrasemes that are considered linguocultural units. Phrasemes have a portable meaning and serve to make thought attractive and influential. In the educational process, it is important to enrich the speech of students with phrasemes. Therefore, it is very necessary to create a base of phrasemes in linguistic digital technologies, including language corps. For this purpose, it is considered important to have a phraseme database in the lexicographic database. This article discusses the reasons for ensuring

¹ Assoc. Prof. Dr., Navoi State Mining University, Uzbekistan
El-mek: abjalova.manzura@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-1927-2669>

² Assoc. Prof. Dr., Samarkand State University, Uzbekistan.

El-mek: umida_rashidova@bk.ru

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0001-8887-2572>

the existence of a database of expressions in linguistic corpora and its meaning. The methods of working with phrases in the Uzbek language educational corpus were also shown.

Keywords: Phrases, Language Corpora, Educational Corpus, Base, Somatic Phrases.

1. Kirish

Ma'lumki, iboralar nutq ko'rki hisoblanadi. Iboralar bilan fikrlarni ta'sirchan qilish, nishonga tegadigan qilib so'zlash mumkin. Aslida ham har qanday tilda, jumladan, o'zbek tilida ham frazeologik birlik (FB)larning yuzaga kelishi tilning oliy ijtimoiy vazifasi – adresatga muayyan ta'sir o'tkazish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan. Bu ehtiyoj frazeologizmlarni emotsional-ekspressivlikning eng ta'sirli va ijtimoiy munosabatlarning barcha ko'rinishlarida ommabop vositasiga aylantiradi.

O'zbek frazeologiyasi arsenalida somatizmlar bilan bog'liq bo'lgan birliklar g'oyatda salmoqli o'rin tutadi va bu kundalik faoliyat hamda ruhiy kechinmalar jarayonida inson tana a'zolari ishtirokining faolligi bilan izohlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning takomillashib, inson badiiy tafakkuri hamda estetik didining teranlashib boravergani sari uni ifoda etishga qodir bo'lgan til vositalariga, jumladan, frazeologik birliklarga zarurat ham ortadi va bu, o'z navbatida, matnda FBlar semantik-stilistik ko'lamining kengayib borishiga sabab bo'ladi. Aynan ular orqali xalqimizning yillar davomida orttirgan tajribasi, bizni o'rab turgan olam haqidagi tasavvuri va olamni qay tariqa idrok etishi aks etadi. *Ko'z, qo'l* va *yurak* elementlari yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz somatik frazemalar tilimizning eng qadimgi qatlamlari sirasiga kirishligini, qadimgi yozma manbalarda ham somatik FBlar keng qo'llanilganligi, turkiy frazeologik fondning katta qismini tashkil etishligini ko'rsatdi.

2. Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari

Somatik frazemalarning davrlar silsilasida mazmun va shakl jihatdan takomillashib, boyib borishi bu birliklar komponent tarkibining muayyan o'zgarishlarga yuz tutishiga hamda bir paradigma doirasida variantlilik va sinonimiyaning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, somatik FBlarning lingvostilistik va lingvopoetik imkoniyatlarini kengaytirdi, lingvistik birliklar fondini muntazam boyitib bordi. Atoqli o'zbek shoir va yozuvchilari asarlari matnidagi somatik iboralar tahlili buni yaqqol isbotladi. Somatik FBlar omonimiyasi ularga o'zbek tilidagi lingvistik lug'atlar materialiga tayangan holda qiyoslab o'rganishni taqozo etdi va bu, o'z navbatida, frazeologik ma'nolarning semantik va grammatik tabiatini chuqur tushunishga yordam berdi. Ularning har biridagi polisemantik ma'nolarni distributiv tahlil metodlari asosida o'rganish yetakchi ma'nodan ajralib chiqqan ikkilamchi ma'noning tilda mustaqil lug'aviy birlik sifatida yashashga haqli ekanligini dalilladi. Ular o'rtasidagi antonimik munosabatlar esa obyektiv olam ziddiyatlarini bir ifoda misolida kognitiv talqin etishning hosilasidir. FBlar tarkibidagi so'zlarning sintagmatik munosabatlari nutqiy hodisa bo'lib, til elementlarining g'ayriodatiy birikuvlari negizida ular o'rtasidagi valentlik yotadi. Inson tafakkuridagi assotsiativ jarayon bu valentlikka, so'zlar o'rtasidagi qandaydir ichki mantiqiy bog'lanishning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Frazemalardagi sintagmatik munosabatlarning yuzaga kelishi nutq muallifining nutqni odatdagidan o'zgacharoq, e'tiborni tortadigan va ta'sirliroq tarzda ifoda etishga intilishiga bog'liqligidan har qanday FB tilda ekspressiv vosita sifatida qabul qilinadi. Ammo somatik frazeologizmlarni o'rganish bu ekspressivlik darajaning bir xilda emasligini ko'rsatdi. FBlarning qo'llanish chastotasi ularning ekspressivligiga teskari proporsional hisoblanadi. Somatik komponentli FBlar o'zbek xalqining mentalitet va milliy-madaniy o'ziga xosligini yorituvchi vosita ham sanaladi. Ular ifodalagan o'ziga xos ma'nolar olamning frazeologik manzarasini yorqinroq aks ettiradi. Ya'ni o'zbek xalqining o'ziga xos qadriyat va an'analari uning xalqi tilidagi iboralarda aks etishi tayin (*qo'lini hallollamoq, qo'l olmoq, yuragini solmoq, ko'z tegmoq* kabi). Shu sabab, ularni lingvomadaniy aspektida o'rganish FBlar semantikasini chuqurroq tahlil etish imkonini berdi. Bu yo'nalish frazemaga madaniy

axborot beruvchi birlik sifatida qaraydi va uni aynan shu jihatdan tadqiq etadi. Bu yo‘nalishda ikki xil aspekt farqlanadi: **sinxron va diaxron**. Sinxron aspekt FBni hozirgi zamon nuqtayi nazaridan yondashib o‘rgansa (ijtimoiy-madaniy jihatdan), diaxron aspekt FBlar semantikasidagi mifologik ko‘rinishlarni (tarixiy jihatlarni) aniqlaydi. Somatik frazeologizmlarning tilda qo‘llanishdagi faolligi stilistik ehtiyoj tufaylidir. Ularning qo‘llanishidan nutq ixchamlashadi, obrazli bo‘ladi. Ular tasvirni baholash vazifasini, modal munosabatlarni o‘z zimmasiga oladi, ifodani emotsional-ekspressiv jihatdan yuqori darajaga olib chiqadi (Rashidova, 2018).

Tadqiqot jarayonida o‘zbek shoir va yozuvchilari asarlarida qo‘llangan, ammo lug‘atlarda aks etib ulgurmagani somatik iboralarning to‘planishi va ularning lingvistik tahlili tilimiz iboralar fondining ushbu birliklar hisobiga tinimsiz boyib borayotganligi haqida xulosaga kelishimizga imkon berdi. Mana shu o‘rinda bunday mashaqqatli ishlarni qilishga, ya‘ni mualliflik iboralarini jamlashda, somatik iboralarning yuzlab matnlar tarkibida qo‘llanilish ko‘lami bo‘yicha aniq xulosalarga kelishda til korpuslari muhim hisoblanadi. Hozirgi vaqtda korpus tilshunosligida turli maqsadlar uchun til korpuslarini yaratish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda (Abjalova, 2022; Abjalova, 2021). Millionlab so‘z(shakl)lardan iborat katta hajmdagi matnlar majmui mana shunday tadqiqotlarda benazir vosita ekanligini mana necha yildirki isbotlab kelmoqda. Shu bois ham dunyo tilshunoslari lingvistik korpuslar ustida ishlash, ularni tahomillashtirish, til korpuslarini zamonaviy talablar asosida shakllantirishga harakat qilishmoqda.

Fikrimizning dalili sifatida O‘zbek tili ta‘limiy korpusidan (<http://uzschoolcorpara.uz/>) bir amaliy mashg‘ulot bajaramiz. O‘quvchi yoki talabalarga somatik iboralarni jamlash vazifasi berilgan bo‘lsin. Mana shu jarayonda ham korpus benazir yordamchi hisoblanadi. O‘quvchilar soatlar yoki kunlab bir qancha qitoblardan inson tanasi a‘zolari bilan bog‘liq iboralarni qidirib o‘tirmaydi. Balki bir necha soniyada kalit so‘z orqali taqdim qilingan matnlar saralamasidan iboralarni yig‘ib oladi, xolos. Korpusning “Izlash” ruknidagi qidiruv satriga qo‘l so‘zi yozib izlanganda bazadagi matnlar majmuasidan *qo‘l* so‘zi qatnashgan 225116 ta konkordans KWIC (Key Word In Context – “kontekstdagi kalit so‘z”) (Abjalova, 2022; Sharipov, Mattiev, Sobirov, Baltayev, 2022; Zaxarov, Bogdanova, 2020) shaklida taqdim etildi (1-rasm). Endi foydalanuvchi ushbu konkordanslardan *qo‘l* so‘zi ishtirok etgan iboralarni jamlab chiqsa, kifoya. Bu **birinchi usul** edi.

225116 ta yozuvdan 20 tasi ko‘rsatilmoqda!

... hal qilish, mehr-oqibat ko‘rsatib yashashda	qo‘l	keladi. ko‘pchilik bo‘lib, ixtiyoriy, xolislik...
... Xorazmshohi atrofidagi ko‘plab beklar ham yov	qo‘lga	taslim bo‘lishni afzal ko‘rganlarida, Jalaliddin bu...
... bironta ham to‘siq kerak emas». Xalqimiz duoga	qo‘l	ochganida, Yaratgandan avvalo tinchlik, omonlik...
... olingani haqida hikoya qilinadi. BBC sharhlovchisi	qo‘lidagi	mobil telefonni ko‘rsatib: «Men har safar bundan...
... Farzand ota kasbini egallasa, odamlar «Otasining	qo‘lini	olibdi», «Otasining davomchisi bo‘libdi», deb undan...
... o‘tkazilgan jahon chempionatida oltin medalni	qo‘lga	kiritdi. Nodirbek 2004-yili Toshkent shahrida...
... va blits yo‘nalishlari bo‘yicha 4 ta oltin medalni	qo‘lga	kiritdi.
... Osiyo chempionatida u bir yo‘ta uchta oltin medalni	qo‘lga	kiritdi.
... poytaxti Tripoli shahrida dunyo shaxmat tojini	qo‘lga	kiritdi. O‘zbek shaxmat sporti tarixida yorqin...
Ularni	qo‘lga	kiritgan g‘alabalari bilan qutlab, qimmatbaho...
... yovga qarshi yolg‘iz kurashga chorlaydi. U dushman	qo‘lida	o‘lishini bilsa-da, bu, yuqorida aytilganidek, eng...
... Ona yurt taqdiriga beparvo qarash – uni o‘zgalari	qo‘lga	topshirib qo‘yish bilan barobaridir. Haqiqiy farzand...

1-rasm. Qidiruvga berilgan qo‘l so‘zi qatnashgan konkordanslar KWIC shaklida.

Ikkinchi usul: o‘sha “Izlash” ruknining “Bigramma” sahifasiga o‘tiladi (2-rasm). “Bigramma”ning qidiruv satriga qo‘l so‘zi yoziladi (3-rasm).

2-rasm. “Izlash” ruknidagi “Bigramma” sahifasiga o‘tish tugmasi.

Uchinchi usul: bu uchun korpusning “Lug‘atlar” rukniga o‘tiladi. Undagi qidiruv satriga qo‘l so‘zi yozildi. Natijada korpusning iboralar bazasidagi 42 ta ibora taqdim etilganini ko‘rish mumkin (3-rasm).

3-rasm. “Lug‘atlar” rukni qidiruv satriga yozilgan qo‘l so‘zi ishtirokidagi iboralar soni

Ko‘k rangdagi “To‘liq ko‘rish” havolasi bosilganida taqdim etilgan iboralar bilan tanishish mumkin. Ahamiyatlisi, unda nafaqat ibora, balki uning izohi yoki so‘zga teng ma‘nosi ham beriladi. Hatto omonim shakli ham izohi bilan ko‘rsatiladi (4-rasm).

O'zbek tili milliy korpusi

Bosh sahifa Ta'limiy korpus Izlash **Lug'atlar** Kirish

ibora:(42 ta) [Ta'liq ko'rish](#)

1. «Gah» desa, qo'lga qo'nadigan qilib olgan: juda itoatkor qilib olgan
2. Egri qo'llik qildi: mayda o'g'irlik qildi
3. Ikki qo'lini burniga tiqdi: quruqdan- quruq, evaziga hech narsa ololmay
4. Ikki qo'lini og'ziga tiqdi: hovliqib, lozim bo'lganidan ko'ra ortiqroq narsani ro'yobga chiqarish uchun intildi
5. Ikki qo'llab: hech qanday e'tirosiz va xursandlik bilan
6. Ko'ngliga qo'l soldi: eng yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qildi
7. Miyasini qoqib, qo'lga berdi: so'rayverib miyasini charchatdi, sergapligi bilan bezdirdi
8. O'zini qo'lga oldi: o'z xatti-harakatlarini irodasiga bo'ysundirdi
9. Ochiq qo'l: saxiy
10. Qo'l berdi I: salomlashish uchun dastpanjasini uzatdi
11. Qo'l berdi II: murid bo'ldi
12. Qo'l ko'tardi: 1) urdi 2) tarafdorligini, xayrixohligini bildirdi 3) gapiruvchi ekanini bildirdi
13. Qo'l keldi: manfaatiga mos tushgan holda qulaylik berdi
14. Qo'l siltadi: diqqat-e'tiborga noloyiq deb topdi
15. Qo'l urdi: 1) tegdi 2) biror ishni qila boshladi
16. Qo'ldan berdi: yo'qatdi
17. Qo'ldan chiqdi: 1) kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi 2) bitdi (qurish, tikish, yozish kabilar)
18. Qo'ldan ketdi: kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi
19. Qo'lga kirdi: ixtiyoriga o'tdi
20. Qo'lga tushdi: 1) tutqun bo'ldi 2) biror nojo'ya ish bilan tutildi 3) aldanib, o'z ixtiyorini berib qo'ydi
21. Qo'lga oldi: 1) o'z ixtiyoriga o'tkazdi 2) qo'qqisdan hujum qilib bosib oldi 3) hibsi qildi, qamash maqsadida tutdi 4) biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qildi
22. Qo'li baland: raqobatda, musobaqada vaziyati ustun
23. Qo'li bormadi: nimanidir qilmaslikka undovchi his-tuyg'uning ta'sirida biror faoliyatga kirisha olmaydi
24. Qo'li egri: o'zgalarning haqini, mulkini o'g'irlaydigan mayda o'g'ri
25. Qo'li kalta: cheklangan imkoniyatga ega
26. Qo'li qisqalik qildi: cheklangan imkoniyatga ega
27. Qo'li tegmadi: juda bandligi tufayli vaqt topolmaydi
28. Qo'li uzun: ortiq darajada imkoniyatga ega

4-rasm. Korpus bazasidan qo'l so'zi ishtirokida taqdim etilgan 42 ta ibora yoymasi.

O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik va grammatik tabiatini to'g'ri anglash, ularning miqdorini, xususiyatlarini chuqur o'rganish asosida tuziladigan frazeologik lug'atlarda ularning yangi ma'nolarini keyingi asr va mustaqillik yillarda yaratilgan materiallar asosida ochib berish o'zbek frazeologiyasi, leksikografiyasi hamda frazeografiyasi oldida turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi.

3. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish quyidagi omillar bilan belgilanadi:

3.1. Frazemalar nutq ko'rki hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ulardan o'rinli foydalanishda korpuslar innovatsion vosita tarzida xizmat qiladi.

3.2. Frazemalar so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois o'zbek tilidagi barcha iboralarning til korpuslarida jamlanishi maqsadga muvofiq sanaladi.

3.3. Frazemalar fikr ta'sirchanligini oshiradi. Shu bois o'quvchilar ta'lim jarayonida iboralardan unumli foydalanib, ulardan kundalik turmushda ham foydalanish ko'nikmasini hosil qilish uchun yagona elektron tizim – til korpusida iboralar bazasini yaratish muhimdir.

3.4. Frazemalar lingvokulturologik hodisa sanaladi. O'zbek xalqining turmush tarzida yuzaga kelgan o'ziga xos iboralari yirik elektron majmuada mujassamlashishi, o'quvchi va tadqiqotchilar, hatto til o'rganuvchilarga ancha qulay imkoniyatlarni beradi.

3.5. Frazemalar – tadqiqotlar obyekti. Iboralar bilan bog'liq muayyan tadqiqotni olib borishda, masalan, somatik iboralar yoki mualliflik iboralari bo'yicha tadqiqot ishida barcha somatik yoxud mualliflik iboralari bir necha soniyada korpusdan manbasining ma'lumoti (metama'lumot) va konteksti (konkordans)i bilan olish imkoni bo'ladi. Bunda vaqt tejaladi va e'tibordan chetda qolgan iboralar ham yuzaga chiqadi.

Kaynaklar

Abjalova M. (2021). The Importance of Language Corpus in The Construction of Lexicographic Sources. *Current Research Journal of Philological Sciences* (2767-3758), Y. 2, S. 12, s. 161–166.

Abjalova M. (2022). *Korpus Lingvistikasi. [Matn]: Uslubiy Qo'llanma, M.A. Abjalova*. Toshkent: Nodirabegim. 110 b.

Kopotev M. (2014). *Vvedeniye v Korpusnuyu Lingvistiku*. Praga. s. 230.

Rashidova U. (2018). *O'zbek Tilidagi Somatik Iboralarning Semantik-Pragmatik Tahlili (Ko'z, Qo'l va Yurak Komponentli Iboralar Misolida): Filol.fan. Bo'yicha Falsafa Doktori (PhD)...diss. – Samarqand, 52 b.*

Sharipov M., Mattiev J., Sobirov J., Baltayev R. (2022). Creating a Morphological and Syntactic Tagged Corpus for the Uzbek Language. *The International Conference and Workshop on Agglutinative Language Technologies as a Challenge of Natural Language Processing (ALT/NLP)*, June 7-8. Koper, Slove (PDF) *Creating a morphological and syntactic tagged corpus for the Uzbek language*. Available from: https://www.researchgate.net/publication/364813957_Creating_a_morphological_and_syntactic_tagged_corpus_for_the_Uzbek_language [accessed Feb 15 2023].

Zaxarov V.; Bogdanova S. (2020). *Korpusnaya Lingvistika: Uchebnik*. 3-e izd., Pererab. SPb.: Izd-vo S.-Peterb. un-ta– s. 234.

Etik, Beyan ve Açıklamalar

1. Etik Kurul izni ile ilgili;

Bu çalışmanın yazar/yazarları, Etik Kurul İznine gerek olmadığını beyan etmektedir.

2. Bu çalışmanın yazar/yazarları, araştırma ve yayın etiği ilkelerine uyduklarını kabul etmektedir.

3. Bu çalışmanın yazar/yazarları kullanmış oldukları resim, şekil, fotoğraf ve benzeri belgelerin kullanımında tüm sorumlulukları kabul etmektedir.

4. Bu çalışmanın benzerlik raporu bulunmaktadır.